

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,

O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA AUTENTIK MATERIALLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR TUZISH METODLARI

Temurxo'ja Shodmanov¹

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallarning o'rni, ulardan til ta'limida foydalanish, autentik materiallarga mos keladigan topshiriqlar tuzish haqida so'z yuritilgan. Autentik materiallardan foydalanish muammolari tahlil qilingan va ularga oid yechimlar taklif qilingan. O'zbek tilini o'rganuvchilarga jonli til muhitiga yanada osonroq kirishni ta'minlaydigan topshiriqlarga misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *til ta'limi, o'zbek tili, xorijiy til, autentik materiallar, o'quv topshiriqlari.*

Annatation. This article talks about the role of authentic materials in teaching the Uzbek language as a foreign language, their usage in language education, and the creation of tasks corresponding to authentic materials. Problems of using authentic materials are analyzed and solutions are proposed. Given some examples of tasks that provide easier access to the live language environment for Uzbek language learners.

Key words: *language education, Uzbek language, foreign language, authentic materials, educational tasks.*

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, har bir sohada rivojlanayotgan mamlakat maqomiga erishish uchun chora-tadbirlarlar ko'rilmogda. Xususan, til ta'limiga ham e'tibor yildan-yilga ortmogda. Buning uchun davlat tilini rivojlantirishga xizmat qilishga qaratilgan muassasalar tashkil qilinmogda. O'zbek tilini o'qitishga doir o'quv adabiyotlari va mobil dasturlar ishlab chiqilmogda.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish sohasida qator o'quv adabiyotlari yaratilgan bo'lib, ular nafaqat tilni o'rgatish, balki o'zbek xalqining madaniyati, urf-odatlar haqida tasavvur hosil qilishga qaratilgan, chunki til ta'limida jonli til muhitiga kirishda autentik materiallarga ehtiyoj kuchli.

Autentik materiallar muayyan xorijiy tilni o'rgatishni maqsad qilmagan materiallardir [1; 27]. Muayyan tilni o'qitish uchun o'rganuvchining til bilish darajasiga muvofiq tarzda tuzilgan materialdan boshqa har qanday materiallarni autentik material deb talqin qilish mumkin. Bunday materiallar bir davrda

¹ Shodmanov Temurxo'ja Alisher o'g'li – *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.*

Iqtibos uchun: *Shodmanov, T.A. (2024) O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 107-111b. DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/SOZK9594*

tayyorlangan, pedagogik maqsadga qaratilmagan bo'ladi. Ular dars materiali sifatida tayyorlanmagan bo'lsa-da, xorijiy til o'quvchilari uchun foydali manbalar bo'lib hisoblanadi [2; 55]. B.Shomurotova o'zining tadqiqotida autentik videomateriallar bilan ishlash metodikasini bir nechta asosiy bosqichga bo'ladi [3; 114]: filmni ko'rish jarayonidan oldin, filmni ko'rish davomida va tomoshadan keyin.

Birinchi bosqich, ya'ni ma'lum bir filmni ko'rishdan oldin, tayyorgarlik jarayoni o'z-o'zidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan grammatik, leksik va fonetik qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadini ko'zda tutadi.

Ikkinchi bosqich aynan tomosha jarayoni to'g'ridan-to'g'ri filmni (yoki uning qismini) tomosha qilishdan iborat bo'lib, uni ikki marta o'tkazish mumkin: birinchi marta asosiy mazmunni tushunish uchun tomosha qilinsa, ikkinchi marta ko'rganlarni batafsil bayon qilish uchun xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich asosan og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Filmdagi voqealarni bayon qilishda til o'rganuvchilarning bilim darajasini hisobga olish kerak. Shunga qarab, mazmunni bayon qilish yo'li tanlanadi. Bu asosiy mazmunnig qisqacha hikoyasi, batafsil bayoni yoki monolog bo'lishi mumkin.

O'zbek tilini o'qitish jarayonida tilni bilish darajalari ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, beriladigan materialda qo'llaniladigan so'zlarning ma'nosidan o'quvchining til bilish darajasiga mos kelish-kelmasligini aniqlash mumkin. Shu sababli, material til o'rganuvchilarining darajasi, uning yoshi, o'qitilayotgan mavzu va o'rgatilayotgan til madaniyatiga mos bo'lishi kerak. Topshiriq berish o'quvchilarga berilgan ma'lumotlarni yaxshi tushunishga, har bir manba uchun berilgan topshiriq olingan bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

O'zbek tili ta'limida autentik materiallardan foydalanib kelinmoqda, ammo ular bo'yicha qanday topshiriqlar berish muammo bo'lmoqda. Autentik materiallarda ishlatilgan so'zlar o'quvchining til bilish darajasiga mos kelsa ham, materialni tushunish uchun beriladigan topshiriqlarni ham shunga moslagan holda tuzish talab qilinadi. Bunday topshiriqlar o'quvchining tilga bo'lgan munosabatini o'zgartirib qo'ymaydigan, aksincha, unga qiziqishni orttiradigan bo'lishi lozim.

Misol uchun, oddiy taqvimdan foydalanamiz. Odatda taqvimlarda bir oyda dam olish kunlaridan tashqari qo'shimcha dam olish kuni sifatida ham ma'lum bir kun belgilab qo'yiladi.

"Hafta kunlari" mavzusi o'tilganda milliy bayramlar haqida ham ma'lumot beriladi. Mavzu ichida quyidagi oy taqvimini ko'rsatib, bir nechta savol va topshiriqlar berish mumkin.

2023-yil sentabr oyi

Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba
				1	2	3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	

Mazkur jadvaldan foydalanib, “Qizil rang bilan belgilangan kunlar qanday kunlar?”, “O‘zbekistonliklar sentabr oyida necha kun dam olishadi?” kabi savollarni berish mumkin.

Bu topshiriqda o‘quvchi shanba va yakshanba kunlari dam olish kuni ekanligini bilgan holda, qo‘shimcha tarzda belgilangan kun e‘tiborini tortadi va o‘zbekistonliklarning milliy bayramlaridan biri bo‘lishi mumkinligiga ishonch hosil qilgach, javob beradi.

Autentik material sifatida A1 darajaga mos bo‘lgan bir reklama roligida mobil aloqa kompaniyasi o‘zining yangi tarif rejasini taqdim etishi ko‘rsatilgan. Reklama roligining vaqti 20 soniyani tashkil etadi va unda quyidagi suhbat aks etgan:

“Super Nol” – To‘ydagi oshdek tekin.

- Yur, komp o‘ynimiz.
- Nimaga? Qara, hamma yoqda tekin ovqat. Kompda tekin nima bor?
- Humans.
- Nima?
- Super nol.

Har kuni Humansdan Humansga qo‘ng‘iroq uchun 20 daqiqa. To‘ydagi oshdek tekin. Humans.

Bu videolavha bo‘yicha quyidagi topshiriqlarni berish mumkin.

Videolavhada aks ettirilgan jarayon haqida fikr bildiring. Bunda o‘quvchi videoni tomosha qilish jarayonida nimalarni kuzatgani, jarayon qayerda va qaysi faslda bo‘layotganiga ahamiyat bergan holda javob berishi kerak bo‘ladi.

Reklama uchun nimaga aynan to‘y oshi tasviri tanlanganini tushuntirib bering. Bu topshiriq o‘quvchining o‘zbek to‘ylarida o‘tkaziladigan marosimlar haqida qanday ma‘lumotlarga egaligini aniqlashga yordam beradi. Mobil kompaniya taklif qilayotgan yangi tarifning to‘ylarda tarqatiladigan bepul nahorgi oshga taqqoslanishidan reklamaning mazmunini anglab olish mumkin.

Oshpazni tasvirlang. Har bir hunarmand yoki kasb egasining maxsus kiyimi bo‘lganidek, oshpazlarning ham o‘z kiyimlari bo‘ladi. Xorijiy oshpazlarning kiyimi bizning oshpazlarimizning kiyimlaridan farq qiladi. Bu topshiriqni o‘quvchi to‘liq bajara olmaydi, chunki oshpazlarimizning bunday kiyinishi haqida ma‘lumotga ega emas. Shu bois bu videolavha o‘quvchiga yangi ma‘lumotlar olishiga yordam beradi. Oshpazning oddiy kiyimi, bo‘yniga osib olgan va bosh kiyim sifatida

bog'lab olgan chit ro'moli o'quvchida qiziqish uyg'otadi va buning sababini o'rgana boshlaydi.

Supermarketlardagi savdo cheki bo'yicha beriladigan topshiriqlar.

<u>Savdo cheki №69</u>	<u>30.02.2024</u>
	So'm
Muzqaymoq	6990
Banan, kg	1000g*20990 = 20990
*Chuchvara Adnan tovuq 500g	20990
Chegirma bilan – 4000	16990
*Kungaboqar yog'i Militer 1L	15490
Chegirma bilan – 2500	12990
Olma Golden 365 kun 1kg	12990
Vafli 365 kun shokoladli 250g	10990
Zaytun MB moyda 200g	18490
Logotipli paket 4 kg gacha	350

Hammasi: 100780

To'lov shakli: Plastik karta

Xarid qilingan mahsulotlarni bir necha guruhga ajrating. Bunda chekda ko'rsatilgan mahsulotlarni qanday ajratish kerakligini, nimalarni qanday bo'limga joylash kerakligini tushuntirib berish kerak.

Vegeterianlar iste'mol qilmaydigan mahsulotlarni belgilang. Bu topshiriqni bajarishda chek bo'yicha xarid qilingan tovarlar orasida go'sht mahsuloti bo'lmasa-da, go'sht qo'shilgan tovar – chuchvara bor va uni ajratish kerak.

Arzonidan qimmatigacha tartiblang. Bu topshiriqni bajarish uchun tovarlarning eng arzonidan qimmatiga qadar tartiblash kerak. Bu jarayonda do'konlardagi narxlar borasida qiziqish uyg'onib, ularni o'rganishga motivatsiya paydo bo'lishi mumkin.

Chegirmaga tushgan tovarlarni aniqlang. Bu topshiriq mustaqil ravishda qilgan xarid chekini tahlil qilishga qaratilgan. Xarid qilingan tovarlarning narxi va qaysilari chegirma bo'yicha sotib olinganini aniqlab, tushuntirish kerak.

Til ta'limida autentik materiallarga beriladigan topshiriqlar muhim rol o'ynaydi. Topshiriqlarning turfa xilligi, o'quvchiga qiziqarli bo'lishi, o'rgangan ma'lumotini mustahkamlashida yordam berishi maqsadga muvofiq. Xususan, autentik materiallarga beriladigan topshiriqlar til o'rganuvchining jonli tilni o'zlashtirishiga, suhbat davomida suhbatdoshini qiyinchiliklarsiz tushunishiga yordam berishi kerak. Boshlang'ich darajada autentik materiallarni har bir mavzuda har bir ko'nikmani rivojlantirishda qo'llash tavsiya qilinadi. Bunda til o'rganuvchi mashg'ulot boshidan bunday materiallar bilan ishlaydi va keyingi darajalarga o'tishda qiyinchilik his qilmaydi.

ADABIYOT:

- Nunan D.* Second language teaching and learning. – Boston: Heinle and Heinle Publishers, 1999. – P.330.
- Temizyürek F., Güleğül Birinci F.* Yabancı Dil Öğretiminde Otantik Materyal Kullanımı. – Bartın, 2016, Sayı: 5. – S. 54-62.
- Shomuratova B.O'.* Ingliz tili darslarida autentik videomateriallardan foydalanishning ahamiyati // International Scientific Journal. – 2023, № 1. – B. 113-114.
- Кадирова, Х.* (2024). ДВА РЕЖИМА ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ В ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ. *Язык и культура Узбекистана*, 5 (2). <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-cultural/article/view/82>.

MUNDARIJA:

1	Muhamedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	Abdulkhlimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112